



OLALAK



KUTUBHONASI

*ADIB AHMAD YUGNAKIY*

*HIBAT  
UL-HAQOYIQ*



"SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2013



UO'K 821.512.133-1

KBK 84(50')6

A 97

— 42093 —

She'riy tabdilni amalga oshiruvchi, so'zboshi va izohlar muallifi:

**ERGASH OCHILOV,**  
*filologiya fanlari nomzodi*

A 97      **Adib Ahmad Yugnakiy.**

Hibat ul-haqoyiq (She'riy tabdilni amalga oshiruvchi, so'zboshi va izohlar muallifi: E.Ochilov). — T.: "Sharq", 2013. — 40 b.

Axloq muallimi nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk so'z san'atkori Adib Ahmad Yugnakiyning Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolari singdirilib, islam dini axloqini targ'ib qilish va komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan "Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar tuhfasi") asari turkiy pandnomaga adabiyotining noyob durdonasi bo'lib, undagi hikmatlarning mavzusi keng va rang-barang: ularda olam va odam munosabatlari, hayotning mazmuni, inson umrining mohiyati, bilimning afzalligi, odob-axloqning kishi kamoloti uchun ahamiyati, insoniy fazilat va qusurlar xususida chuqur bilim va katta hayotiy tajriba asosida, kundalik turmushdan olingan misollar vositasida teran mulohazalar yuritilib, ibratli xulosalar chiqariladi. Qadim turkiy, arabiyl, forsiy so'zlarga boy bu asarni o'qib tushunish hozirgi o'quvchiga qiyinchilik tug'dirgani uchun shu paytgacha uning mazmuni zamonaviy o'zbek tilida nasriy bayon qilinib kelgani ma'lum. Ushbu nashr "Hibat ul-haqoyiq" ning 11 hijoli barmoq vaznida amalga oshirilgan she'riy tabdilidan iborat. Binobarin, yillar davomida asar mazmunidan nasriy bayon orqali xabardor bo'lgan o'quvchilar endi uning zamonaviy o'zbek tilidagi she'riy tabdilini o'qib, nazmiy nafosaqtan ham bahramand bo'ladilar, deb o'yaymiz.

10 42093  
091

UO'K 821.512.133-1  
KBK 84(50')6

ISBN 978-9943-00-555-

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririysi. 2013.

2013/84 A

nomidagi

O'zbekiston MK

2013/84 A

10500

## AXLOQ MUALLIMI

XII asr oxiri — XIII asr birinchi yarmida yashab ijod qilgan, “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuh-fasi”) asari bilan o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadigan ulug‘ shoir va mutafakkir Adib Ahmad Yughnakiyning tarjimayi holi haqida juda oz ma’lumotga egamiz. Asarining faqat bir yerida u o‘z nomini tilga oladi:

*Adib Ahmad oti, adab-pand so‘zum,  
So‘zum munda qolur, borur bu o‘zum<sup>1</sup>.*

“Hibat ul-haqoyiq”qa Adib Ahmad shaxsi, hayoti va faoliyatining ayrim nuqtalarini oydinlashtiruvchi noma'lum bir shoir va Amir Sayfiddinlarning to‘rtliklari hamda temuriy amaldorlardan Arslon Xo‘ja Tarxonning 10 baytlik masnaviysi ilova qilingan. Masnaviyda, jumladan, quyidagi ma’lumotlarni o‘qiyimiz:

*Adibning yeri oti Yugnak erur,  
Safoliq ajib yer — ko‘nullar yorur.*

*Atosi oti Mahmud Yughnakiy,  
Adib Ahmad o‘g‘li — yo‘q ul hech shaki.*

*Kitobining oti erur “Hibat ul-Haqoyiq” — iborat arabdin o‘shul.*

*Tamomi erur koshg‘ariy til bila,  
Ayitmish Adib riqqati<sup>2</sup> til bila (96—97).*

<sup>1</sup> A h m a d Y u g n a k i y. Hibat ul-haqoyiq (nashrga tayyorlovchi Q. Mahmudov). — Toshkent, 1971. 93-bet. Keyingi misollar ham shu nashrdan olinib, sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi — E.O.

<sup>2</sup> R i q q a t — noziklik, latofat.

Ma'lum bo'ladiki, Adib Ahmad Yugnak degan so'lim va bahavo joyda tug'ilgan. Otasining oti Mahmud Yugnakiy bo'lgan. Kitobining nomi arabcha bo'lib, "Hibat ul-haqoyiq". Koshg'ariy tilda' yozilgan bu kitobni shoir mahorat bilan nazm rishtasiga tergan. "Qutadg'u bilig"dan bir-ikki asr keyin yaratilgan bu asar qadimiy va boy turkiy adabiyotning noyob durdonasi hisoblanadi. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida Adib Ahmadga alohida o'rinn ajratib, ham shaxsi, ham ijodi xususida yuksak fikrlarni bildirishi uning ham zabardast so'z ustasi, ham mashhur tasavvuf namoyandasini bo'lganligidan dalolat beradi<sup>2</sup>.

Shoir tug'ilgan joy olimlar o'rtasida ko'p tortishuv-larga sabab bo'lgan. Samarcand, Farg'ona va Turkistonda Yugnak degan joy borligi aytilsa-da, ko'pchilik uni Samarcand atrofida deyishga moyil va keyingi davrlarda ilmiy muomalaga kiritilgan adabiy-tarixiy manbalar bu fikrning to'g'riligini tasdiqlayapti. Jumladan, XII asrda yashagan mashhur tarixchi Abdulkarim as-Sam'oniy "Al-Ansob" ("Nasab-noma") kitobida yozadi: "Yug'anak — Samarcand qishloqlaridan. Abu Homid Ahmad ibn Abu Ahmad al-Yug'anakiy bu nisbat bilan mashhurdirlar. Bu kishi Samarcand ahlidan. Sohib ibn Muslim al-Balxiy, Abdurahim ibn Habib al-Bag'dodiy va Abu Is'hoq Ibrohim ibn Is'hoq as-Samarqandiyidan hadis rivoyat qilganlar. O'zlaridan esa Abdulloh ibn Mas'ud ibn Komil as-Samarqandiy hadis rivoyat qilganlar"<sup>3</sup>

<sup>2</sup> Koshg'ariy til — Qoraxoniyilar davri adabiy tili. Bu adabiy tilni Mahmud Koshg'ariy — xoqoniy tili, Yusuf Xos Hojib — bug'raxon tili deb atagan edilar.

<sup>3</sup> Qarang: A l i s h e r N a v o i y . Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jiddlik. 17-jild (Nasoyim ul-muhabbat). — Toshkent, 2001. 426—427-betlar.

<sup>4</sup> A b d u l k a r i m a s - S a m ' o n i y . Nasabnama (tarjimonlar Hoji Abdulg'afur Razzoq Buxoriy, Komiljon Rahimov). — Buxoro, 2003. 199-bet.

Bu ma'lumotlar Adib Ahmadning Samarcand atrofida Yug'anak qishlog'ida tug'ilganligini oydin-lashtiribgina qolmay, uning nafaqat zabardast shoir, ayni paytda, mashhur muhaddis ham bo'lganligidan xabar beradi.

Adib Ahmad tug'ma ko'r bo'lgan. "Tug'a ko'rmas edi Adibning ko'zi" (95), — deyiladi bu haqda asarga ilova qilingan noma'lum shoirning to'rtligida. Lekin, Navoiy ta'biri bilan aytganda, u nihoyatda ziyrak va zakiyligi bilan ajralib turgan: "Ammo bag'oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy<sup>1</sup> kishi ermish. Haq sub-honahu va taolo agarchi zohir ko'zin yopuq yaratqandur, ammo ko'ngil ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondur... Va aning tili turk alfozi<sup>2</sup> bila mavoiz-u<sup>3</sup> nasoyihqa<sup>4</sup> go'yo ermish. Xeyli elning muqtadosi<sup>5</sup> ermish. Ba'ki aksar turk ulusida<sup>6</sup> hikmat-u nuktalari<sup>7</sup> shoe'dur<sup>8</sup>. Nazm tariqi bila aytur ermish, aning favoididindur:<sup>9</sup>

*Ulug'lar ne bersa, yemasman dema,  
Ilik sun, og'iz ur, yemasang—yema!*

Va aningdurkim:

*So'ngakka ilikdur, eranga — bilik,  
Biliksiz eran — ul iliksiz so'ngak<sup>10</sup>.*

Birinchi baytning mazmuni: "Ulug'lar senga qutlug'" dasturxonadan bir nimani ilinsalar, harchand to'q bo'lsang ham yemayman deb ularning qo'lini qaytar-

<sup>1</sup> M u t t a q i y — taqvodor, parhezli.

<sup>2</sup> A l f o z — so'zlar, iboralar, jumlalar.

<sup>3</sup> M a v o i z — nasihatlar, pandlar, o'gitlar.

<sup>4</sup> N a s o y i h — nasihatlar.

<sup>5</sup> M u q t a d o — yo'llboshchi.

<sup>6</sup> U l u s — xalq, el, omma.

<sup>7</sup> N u k t a — nozik va teran ma'noli so'z, hikmat.

<sup>8</sup> S h o e' — yoyilgan, mashhur bo'lgan.

<sup>9</sup> F a v o i d — foydalar.

<sup>10</sup> A l i s h e r N a v o i y. Mukammal asarlar to'plami. 17-jild. 426—427-betlar.

ma, yemasang ham qo'lingga olib, bir og'iz tegizib qo'y".

Bu yerda ulug'larni hurmat qilish ma'nosida so'z borayapti.

Ikkinchı baytning mazmuni: "Suyak ilik bilan, er kishi bilim bilan ko'rkli. Bilimsiz kishi iliksiz suyakka o'xshaydi".

Bu yerda ilm-ma'rifat ulug'lanayapti.

Asarning mavjud nusxalarida mazkur baytlarning yo'qligi "Hibat ul-haqoyiq"ning asrlar davomida turli o'zgarishlarga uchraganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy otasi Husayn Boyqaroga qarshi isyon ko'targan Badiuzzamon Mirzoga pand-nasihat qilib yozgan maktubida ham Adib Ahmadning bir to'rtligini keltiradi:

*Atodin xato kelsa, ko'rma xato,  
Savob bil xato toki qilsa ato.  
Atoning xatosini bilgil savob,  
Seni yuz balodin qutqarg'ay Xudo'.*

Ushbu dalillardan "Ahmad Yughakiyning shaxsiyatı va uning "Hibat ul-haqoyiq" asari XV—XVI asrlarda ham el orasida mashhur bo'lgani ko'rinadi"<sup>2</sup>.

Adib Ahmad "Hibat ul-haqoyiq"ni tugatib, uni hukmdori — "aql-u hush makoni-yu bilim va fazilat koni" (35) bo'lmish Dod Sipohsolorbekka taqdim etadi:

*Dod Sipohsolorbek uchun bu kitob —  
Chiqartim ochunda oti qolsu(v) tep (38).*

Dod Sipohsolorbekning kimligi to'g'risida bahsmunozaralar hali yakuniga yetmagan. Abdurauf Fitrat bu nom Sayfi Isfarangiy (1185—1268) qasida va

<sup>1</sup> A l i s h e r N a v o i y . Mukammal asarlar to'plami. 14-jild (Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqsiya). — Toshkent, 1998. 184-bet.

<sup>2</sup> M a h m u d o v Q. "Hibat ul-haqoyiq" asarining yozilish davri, g'oyasi va uning muallifi haqida // A h m a d Y u g n a k i y . Hibat ul-haqoyiq. — Toshkent, 1971. 8-bet.

hajviyalarida tilga olinganligidan kelib chiqib, u XII—XIII asrlar orasida Farg'ona hokimi bo'lgan, degan fikrni ilgari suradi. Xuddi shu Dod Sipohsolorbekni "Adib Ahmadning hukmdori deb qabul qilish kerak. Butun ehtimollarning kuchlisi shudir"!

Adib Ahmad "Hibat ul-haqoyiq" asari bilan o'zbek adabiy tili va adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shdi. Mashhur sharqshunos olim Y.E.Bertels bu asar qadimgi o'zbek adabiy tilidan mumtoz o'zbek adabiy tiliga o'tishda bir ko'prik bo'lganini aytadi. Asarda qadimiy turkiy so'zlar bilan bir qatorda, ko'plab arab va fors so'zlarining ham qo'lllangani shundan dalolat beradi. Taniqli tilshunos Qozoqboy Mahmudovning aniqlashicha, "Hibat ul-haqoyiq"da atoqli otlar va arab tilida yozilgan sarlavhalardan tashqari, 300 ga yaqin arab va fors so'zлari mavjud bo'lib, ular asarda-gi jami so'zlarning 20 foizini tashkil etadi<sup>2</sup>.

"Hibat ul-haqoyiq" ilk bor uyg'ur yozuvida bitil-gan. Uning nusxalari ko'p bo'lib, ularda asar hajmi turlicha. Hozircha ma'lum qo'lyozmalardan 3 tasi to'liq, qolgani parchalardan iborat. 1444-yili Samara-qandda Zaynulobidin baxshi, 1480-yili Istanbulda Abdurazzoq baxshi va Turkiyaning To'pqopи kutubxonasi dagi noma'lum kotib tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmalar e'tiborli nusxalar hisoblanadi. Asarni bininchchi marta turk olimi Najib Osimbek topib nashr ettirgan (qisqartirilgan nashri — 1906, to'liq nashralari — 1916, 1925). Keyin 1951- va 1992-yillarda uni Rashid Rahmati Arat so'zboshi, izohlar va 6 ta nusxasining faksimilesi va Turkiyada XVI asrda ko'chirilgan arab yozuvidagi nusxasining tarjimasi bilan chop ettiradi. O'zbekistonda asardan parchalar Fitrat,

<sup>1</sup> Abdurauuf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild (ilmiy asarlar). — Toshkent, 2000. 48—49-betlar.

<sup>2</sup> Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari haqida. — Toshkent, 1972. — 17-bet.

Oybek, Porso Shamsiyev, Solih Mutallibovlar tomonidan o'zbek adabiyoti namunalaridan tuzilgan majmualarda e'lon qilingan. So'ng u Qozoqboy Mahmudov tomonidan alohida kitob sifatida nashr qilindi (1968; 1971). O'tgan asr oxirlarida uyg'ur olimlari H. Temur va T. Ayyub, qozoq olimlari E. Qurishjonov va B. Sog'indiqovlar uni asl matni, tarjima va fotonusxalari bilan nashr ettinganlar. Shuningdek, Y. E. Bertels, Fitrat, Fuod Ko'pruli, T. Takin, E. Rustamov, N. Mallayev, A. Qayumov, A. Hayitmetov, A. Rustamov, M. Imomnazarov, B. To'xliyev, N. Rahmonov, I. Haqqul, G. Xo'janova va boshqalar Ahmad Yugnakiy va "Hibat ul-haqoyiq" haqida u yoki bu darajada tadqiqot ishlarini olib borganlar.

"Hibat ul-haqoyiq" 14 bob, \$12 misradan iborat. Dostonning birinchi bobi Olloh hamdi, ikkinchi bobi Muhammad alayhissalom na'ti va choryorlar ta'rifiga, uchinchi bobi Dod Sipohsolorbek madhiga bag'ishlangan. To'rtinchi bobda kitobning yozilish sabablari bayon qilingan. Dastlabki to'rt muqaddima bobdan so'ng asosiy qismga o'tiladi. Beshinchi bob — ma'rifatning foydasi-yu jaholatning zarari, oltinchi bob — til odobi, yettinchi bob — dunyoning o'tkinchiligi, sakkizinchi bob — saxiylik va baxillik, to'qqizinchi va o'ninchi boblar turli masalalarga bag'ishlangan bo'lib, o'n birinchi bob — kitobning xotimasi (asarning 1480-yili Istanbulda Abdurazzoq baxshi tomonidan ko'chirilgan nusxasida 11 bob mavjud — uch bob yo tushib qolgan, yo boshqalariga qo'shilib ketgan).

"Hibat ul-haqoyiq" ham "Shohnoma" va "Qutad-g'u bilig" kabi mutaqoribi musammani maqsur (mahzuf) vaznida yozilgan. Asarning an'anaviy kirish qismlari qasida, g'azal va qit'a shaklida (aa, ba, va) bo'lib, asosiy qismlari to'rtlik (aaba) shaklida davom etadi.

Adib Ahmad o'zini shoir emas, balki adab muall-

mi deb hisoblangan. O'ziga xos axloq kitobi bo'lgan "Hibat ul-haqoyiq"da Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolari singdirilgan. U islam dini axloqini tashviq qilish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan. Shunga muvofiq, asar ham asosan pand-nasihat usulida yozilgan. Bu haqda mualifning o'zi shunday deydi:

*Bezadim kitobi mavoiz, masal,  
Boqig'i, o'qug'i osig' olsu(v) tep (39).*

Mazmuni: "Ko'rgan, o'qiganlar manfaat olsin, deb kitobimni turli xil maqol-matallar, pand-nasihatlar bilan bezadim".

Ko'pchilik bayt va misralarning hikmat kabi jaranglashi Adib Ahmadning shoirlik salohiyati chindan ham baland bo'lganligidan dalolat beradi. Voqe'an, asarga ilova qilingan Amir Sayfiddinning to'rtligida Yughakiyning iste'dodi va maqomi xususida ham yuskak fikrlar bildiriladi:

*Adiblar adibi, fozillar boshi,  
Guhartin so'z aymish odin so'z bishi (96).*

Mazmuni: "Adiblar adibi, fozillar sarvari gavhar kabi bebah o so'zlarni nazm shodasiga tergan".

"Bu faktlar, bir tomon dan, Adib Ahmad Yughakiyning yetuk shoир, zamonasining ulug' bilimdoni ekanligini ko'rsatsa, ikkinchi tomon dan, zamondosh shoirlar, adiblar oldida hurmatga sazovor ekanligini bildiradi. Adibning malik ush-shuaro bo'lgani haqida ma'lumot bo'limasa ham, o'zining hamkasblariga adabiyotdan ta'lim bergani ehtimoldan uzoq emas"<sup>1</sup>.

"Hibat ul-haqoyiq"ning o'zbek mumtoz adabiyotining nodir namunalari qatoridan joy olganligi bejiz emas. Chunki asardagi axloqiy, ma'rifiy va falsafiy mazmundagi ko'plab hikmatlar asrlarni bo'yab

<sup>1</sup> M a h m u d o v Q. "Hibat ul-haqoyiq" asarining yozilish davri, g'oyasi va uning mualifi haqida. 9-bet.

keldi va asrlar osha yana kelgusi avlod ma'naviy tarbiyasi uchun xizmat qilaveradi. Xususan, ilm-ma'rifat masalariga asosiy e'tibor qaratiladi. Mutafakkir shoir nuqtayi nazariga ko'ra:

*Bilik birla bilnur saodat yo'li,  
Bilik bil, saodat yo'lini bula (40).*

Mazmuni: "Saodat yo'li bilim bilan ochiladi. Shuning uchun bilim egallab, saodat yo'lini izla".

Bu mo'jaz asardagi hikmatlarning mavzusi keng va rang-barang: ularda olam va odam munosabatlari, hayotning mazmuni, kishi umrining mohiyati, bilimning afzalligi, odob-axloqning inson kamoloti uchun ahamiyati, insoniy fazilat va qusurlar xususida chuqur bilim va katta hayotiy tajriba asosida, kundalik turmushdan olingan misollar vositasida teran muloha-zalar yuritilib, ibratli xulosalar chiqariladi. Misol uchun, muallif hukmdorlarniadolat va muruvvatga chaqirar ekan, arzimas bir ayb bilan ham bosh kesilaversa, dunyoda tirik kishi qolmaydi deydi:

*Bu bir aybdan o'tru boshin kesguchi,  
Ochunda tirlgu kishisiz qolur (79).*

Saxovat va muruvvatdan xoli odamni mevasiz daraxtga qiyoslaydi — mevasiz daraxt esa kesib o'tin qilishgagina yaraydi:

*Yemishsiz yig'ochtek karamsiz kishi,  
Yemishsiz yig'ochni kesip o'rtagil (73).*

U, ayniqsa, baxillikni qattiq qoralaydi. Chunki bu dunyoda baxilning qilmishidek tentakona qilmish, baxilning hayotidek bema'ni hayot bo'lmasa kerak:

*Baxil yig'di zar-siyim haromin o'kush,  
Vabal ko'tru bordi, uzala so'kush.*

*Ulush bo'ldi moli kishilar aro,  
Baxil oldi andin so'kunchtin ulush... (62)*

*Qamug' qozg'onikli ochun molini  
Yeyumadi, bordi — ko'rung holini (66).*

Mazmuni: "Baxil haromdan hazar qilmay, oltinkumush yig'di. O'zi o'lib ketdi-yu, xalqning la'natiga sazovor bo'lgani qoldi. Odamlar uning mol-dunyosini bo'lishib oldilar, o'ziga tekkan ulush esa elning qarg'ishi bo'lди... Dunyo molini yig'ib, o'zi yeb-ichmagan kishining qismati ana shunaqa bo'ladi".

Shoir xalq maqollari, el ichida yurgan qanotli so'zlarni ham mahorat bilan she'rlari qatiga singdirib yuboradi. Masalan, quyidagi misralarda "Qonni qon bilan yuvib bo'lmaydi" maqolidan o'zining badiiy maqsadini ifodalash uchun foydalanadi:

*Jafo qildachingg'a yonut qil vafo,  
Arimas necha yuvsа qon birla qon (74).*

Mazmuni: "Jafo qilganga ham vafo qil, chunki qonni qon bilan yuvib ketkazib bo'lmaydi".

Ko'riniib turibdiki, bu pand-u nasihatlar xuddi bugungi kunda aytilganday. Barcha davrlarda qimmatini yo'qotmay kelgan bu teran o'gitlar dunyo turguncha o'z ahamiyati va ta'sir kuchini yo'qotmasligi shubhasiz. Barkamol asarlarning barhayotligi shunda ko'rindi.

Qadim turkiy, arabiyl, forsiy so'zlarga boy "Hibat ul-haqoyiq" asarini o'qib tushunish hozirgi o'quvchiga qiyinchilik tug'dirgani uchun shu paytgacha uning mazmuni zamonaviy o'zbek tilida nasriy bayon qilinib kelgani ma'lum. Biz uni 11 hijoli barmoq vaznida she'riy tabdil qildik. Ushbu tabdilni "Hibat ul-haqoyiq"ning taniqli tilshunos olim, filologiya fanlari doktori Qozoqboy Mahmudov tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni va uning nasriy bayoni asosida amalga oshirdik<sup>1</sup>. Boblar va ichki sarlavhalar nomi

<sup>1</sup> Qarang: M a h m u d o v Q. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari haqida (kirish, fonetika, morfologiya, tanqidiy matn, transkripsiya, sharh, lug'at). — Toshkent: "Fan", 1972.

arabcha bo'lgani uchun ularni Q.Mahmudov tarjimasi bo'yicha qoldirdik. Yillar davomida asar mazmunidan nasriy bayon orqali xabardor bo'lgan o'quvchilar endi uning zamонавиy o'zbek tilidagi she'riy tabdilini o'qib, nazmiy jarangosidan ham bahramand bo'ladi-lar, deb o'ylaymiz.

**Ergash Ochilov,**  
*filologiya fanlari nomzodi*

## **Bismillohir rahmonir rahim**

*(Ollohnning hamdi haqida)*

Iloho, behad hamd ayturman senga,  
Lutfing cheksiz — umid qilaman unga.

Loyiqmi hamdingni aytishga bu til,  
Yolvorib so'rayman — ko'mak ber menga.

Jonsiz tabiat-u jonli mavjudot  
Guvohlik beradi: sen borsan — shunga.

Oqil shak keltirmas — har bir ashyoda  
Borligingga bordir dalil ming-ming-a!

### **Kengayish, qisqarish, o'zgarish va dunyoning birligi haqida**

Yo'q edim, bor qilding, yana yo'q etib,  
Qayta bor qilursan — iqrorman bunga.

Ey shubha-gumonning domida qolgan,  
Qutqar o'zni iymon keltirib Unga.

Xudoyim, yaratdi kun bilan tunni,  
O'rin almashadi o'tib so'l, o'ngga.

Tonglar otaverar qayta va qayta  
Kun tunga aylanib, tun yana kunga.

## **O'lik va tiriklikning almashinishi haqida**

O'likdan tirig-u tirikdan o'lik —  
Yaratar, hikmat bu har anglaganga.

Qudratda yagona ulug' Tangri bu,  
O'likni turguzish oson O'ziga.

## **Payg'ambar alayhissalom na'ti haqida**

Aql-u hushing yig'ib eshitgil, endi  
Payg'ambar fazlidan so'z ochay senga.

Insonlar ichida eng afzali u,  
Teng kelolmas hech bir payg'ambar unga.

Nabiylar yuzidan yog'iladi nur,  
Bu jihatdan ular o'xshaydi kunga.

Uning madhi bilan shirindir tilim,  
Uning yodi huzur bag'ishlar tanga.

Hamd aytayin, zora qiyomat kuni  
Shafoat qo'lini uzatsa menga<sup>1</sup>.

## **To'rt xalifa madhi**

Yana to'rt do'stingga ayturman salom,  
Jonom fido bo'lsin bu to'rt eranga<sup>2</sup>.

Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali —  
Tengsiz bahodirdir kirganda jangga.

Bu haq yo'lidagi to'rt xalifaga  
Kim e'tiqod qilmas — la'nat o'shang!

<sup>1</sup> Ma'lumki, Muhammad alayhissalomga qiyomatda mu'minlarini shafoat qilish — himoya qilish huquqi berilgan — bu yerda shunga ishora qilinayapti.

<sup>2</sup> Eran — er, mard.

Kechirib kelgansan gunohim doim,  
Afv et yana — rahm qil ojiz bandangga.

Barcha g'am-azobdan qutular edim,  
Agar fazl-u aqling yor bo'lsa menga.

**Ulug' Amir Dod Sipohsolorbek  
Tangri yorlaqag'urning madhi**

Ey til, qani, madh et, aylayin tortiq  
Shohimga — dovrug'i tutmisht dunyon.

Shohim madhi bilan bezadim kitob,  
O'qigan kishining yayrasin joni.

Kimga kengash berar, kimga yo'l-yo'riq,  
Himmati balanddir, cheksiz ehsoni.

U aql-u hush, tengsiz idroq sohibi,  
Bilim manbayi ham fazilat koni.

Simok<sup>1</sup> yulduzidan himmati baland,  
Saxovati ming bir dardning darmoni.

Xalqqa mehribondir, beozor, halim,  
Arslondek lekin qaynasa qoni.

Haybat-u quvvatda Umardek kuchli,  
Saxovatda Usmon kabi nishoni.

Salobatda osmon oldida pastdir,  
Adolatda Anushervon unvoni<sup>2</sup>.

Hatto dushmanlarni tan oldirgandir  
Bulutlarni uyaltirgan ehsoni.

<sup>1</sup> Simok — Asad burjidagi qo'sh yulduzning nomi.

<sup>2</sup> Anushervon (No'sh ir v on) — odilligi bilan nom  
chigargan sosoniyalar sulolasidan bo'lgan Eron shohi. U Sharq xalqlari  
orasida adolat timsoliga aylanib ketgan.

Qum zarrasi kabi behaddu hisob  
Shohimdagi ezgu xislatlar soni.

Siyosat, adolat, yurt boshqarishda  
Tengi yo'q — bu so'zning yo'q hech yolg'oni.

Ulug'lik, muruvvat, futuvvat<sup>1</sup> bilan,  
Siylab Haq, ko'rinas fazlin poyoni.

Bulutdan bir tomchi yoqqaniga shod  
To'lqin urishini ko'rgil daryoni.

Tong yo'q, qabul qilsa arzimas hadyam,  
Daryordan saxiyroq shohi dunyoni.

### **Bu kitobning yozilish sababi va zarurati haqida**

Yozdim bu kitobim Sipohsolorbek  
Nomi bu dunyoda mangu qolsin deb.

Kitobimni ko'rgan, eshitgan kishi  
Uni duo bilan yodga olsin deb.

Kelgusi avlodlar ichra ham nomi  
Abadiy yashasin, boqiy bo'lsin deb.

Uning zikri bilan ko'ngillar yashnab,  
Uning yodi bilan olam to'lsin deb.

Bezatdim kitobin pand-o'git bilan,  
O'qiganlar undan foyda olsin deb.

Tortiq etdim uni shohimga toki  
Mehr-u muhabbatim tugal bilsin deb.

<sup>1</sup> Futuvvat — X asrdan boshkab Movarounnahr va Xurosonda xalqning og'irini engil qilish, zolim hukmdorlarga qarshi kurashish, uyushgan holda el-u yurtni tashqi dushmanlardan himoya etish maqsadida paydo bo'lib, o'zida xalq ichidan chiqqan turli kasb-hunar egalarini birlashtirgan harakat. Bu toifa javonmardlar, fatiylar, axiylar, ayyorlar deb ham yuritilgan.

## BIRINCHI BO'LIM

### Ilm manfaati va jaholat zarari haqida

Bilimdan so'zlayman — so'zimni eshit:  
Bilimli kishiga o'zni yaqin tut.  
Bilimdan ochilar saodat yo'li,  
Bilim ol — saodat manziliga yet.

Bilimli oltindek har yerda ustun,  
Bilimsiz misoli qurigan o'tin.  
Bilimli, bilimsiz qachon teng bo'lar?  
Bilimli xotin — er, johil er — xotin.

Suyak — ilig-u er — bilim bilan, bil,  
Suyak ko'rki — ilik, er ko'rki — aql.  
Bilimsiz iliksiz suyakday bo'm-bo'sh,  
Iliksiz suyakka uzatilmas qo'l.

Bilimdan er kishi bo'ldi belgilik,  
Bilimsizga tirik o'lmoq ko'rgulik.  
Bilimli o'lsa-da, oti o'lmadi,  
Bilimsiz hayot-u oti-chi, o'lik.

Bitta bilimki ming bilimsizga teng,  
Bilimli biladi bilim qadrin deng.  
Endi o'zing boqib, uqib, sinab ko'r:  
Bilim foydasiga nima kelar teng?!

Olim yuksaladi bilimi bilan,  
Bilimsiz kishilar bo'ladi tuban.  
Bilimli bo'l, sira erinma, Rasul  
Kim bilimli bo'lsa, ulug'lang degan.



## **Muhammad (alayhissalom)ning ilm o'rganish haqida aytganlari**

Bilimli bilimni farqlagan bo'lar,  
Bilimning qadrini bilimli bilar.  
Erga bilim qadrin bilim bildirar,  
Bilimni bilimsiz nodon ne qilar?

Bilimsizga haq so'z tatimas hech ham,  
Pandga quloq tutmas bilimsiz odam.  
Yuvinsa pok bo'lar har qanday nopok,  
Johil pok bo'lmaydi ming yuvinsa ham.

## **Tangrining mo'jizalari, johillikdan tiyilish, Xudoning rasuliga sodiq bo'lish haqida Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam)ning aytgan so'zlari**

Bilimli ne qilar — biladi tayin,  
Bilib qilganidan o'kinmas keyin.  
Bilimsizga har ish to'g'ri ko'rinar,  
Shundan unga chora yo'q o'kinmayin.

---

<sup>1</sup> M a'rifat — Olloh mohiyati haqidagi ilm, irfon.

<sup>2</sup> B u t — Xudoni tasvirlaydigan va uning timsoli deb sig'iniladigan moddiy buyum (xudolarning tosh, yang'och, sopol va boshqa narsalardan yasalgan haykalchalari, rasmlari, tasvirlari va boshqalar).

Bilimli kerakli so'zin gapirar,  
Keraksiz so'zini ko'mib yashirar.  
Bilimsiz ne desa, uqmasdan deyar,  
Uning o'z tili o'z boshini yeyar.

**Haqni tanishga ham kerak ma'rifat<sup>1</sup>,**  
**Bilimsizlikda yo'q hech ezgu jihat.**  
**Bilimsizligidan ko'p qavmlarga**  
**Qo'lini but<sup>2</sup> qilib, sig'inish odat.**

Bilimli so'zi pand-nasihat, adab,  
Bilimlini maqtar Ajam-u<sup>1</sup> Arab.  
Bilim faqir uchun tuganmas boylik,  
Hisobsizga bilim yechilmas hisob.

---

<sup>1</sup> **A j a m** — arab bo'limgan mamlakatlar. Ko'proq Eron ko'zda tutiladi.

**Tilni tiyish va odob-axloq haqida**

Quloq tut — bilimli nimalar deyar:  
Adab boshi — tilni tiyishlik bo'lar.  
Tilingni tiyib yur, tishing sinmasin,  
Tilingni tiymasang, tishing sindirar.

O'ylab so'zlaganning so'zi haqiqat,  
Yomon til o'zingga dushman beshafqat.  
So'zga ehtiyyot bo'l, tiling tiyib yur,  
Tiyiqsiz til boshga keltirar ofat.

Aqli sanalmas tili bo'sh kishi,  
Ko'p boshlar ketdi — bu bo'sh tilning ishi.  
Kishi tilini top, o'chakishtirma,  
O'q yarasi bitar, bitmas til nishi.

**O'q yarasi, aqldan ozish,  
til jarohati va uni tiyish haqida**

O'z boshiga dushman nodonning tili,  
Tili ko'p kishining bo'ldi qotili.  
Tiliga erk berish keltirar o'kinch,  
Tilini tiyganning xotirjam dili.

Kishiga ne kelsa, tilidan kelar,  
Tildan kishi yaxshi-yomonlik ko'rар.  
Quloq tut bu pandga — u barchaga teng,  
Kim uni dilga jo qilar, yukinar.

Tilingga erk berma, qisqa qil so'zing,  
Tiling tiyib yursang, omondir o'zing.

Rasul der: kishini o'tga tashlar til,  
Tiling tiy, bu o'tdan xalos qil o'zing.

Kim ikki narsadan emasdир xoli,  
Yopilgандир унга muruvvat yo'li.  
Birisi — behuda vaysasa tinmay,  
Birisi — ko'п yolg'on so'zlasа tili.

Tili yolg'on erdan yiroq tur tez-a,  
Umringni kechirgil to'g'rilik uza.  
Og'iz, til bezagi to'g'ri so'z bo'lar,  
So'zni to'g'ri so'zla — dilingni beza.

Yolg'on — sassiq piyoz, to'g'ri so'z — asal,  
Piyoz yeb sasima, bol ye har mahal.  
Yolg'on so'z dard bo'lsa, to'g'ri so'z davo,  
Bu haqda shunday deb to'qilgan masal.

To'g'ri bo'l, to'g'ri yur, to'g'ri nom qozon,  
To'g'ri desin seni har bitta inson.  
To'g'rilik to'nin kiy, egrilikni qo'y,  
To'g'rilik to'nidan huzur topar jon.

Qattiq yashir — siring kishi bilmасin,  
So'zingdan o'zingga o'kinch kelmasin.  
Barcha pinhon siring bo'lib oshkora,  
Ko'rgan-eshitganlar senga kulmasin.

Har qancha ishonchli do'sting bo'lsa ham,  
Ko'ngil sirlariga aylama mahram.  
O'zingning ichingda tinch turmagan sir,  
Birovning ichida turarmi mahkam?

### **Dunyoning o'zgarib turishi haqida**

Bu dunyo misoli bir karvonsaroy,  
U karvon ahliga vaqtinchalik joy.  
Bir karvon bu yerdan yo'lga chiqqanda,  
Bir karvon manzilga yetdi, hoynahoy.

Bu dunyo ketidan yugurar necha,  
Baxil timmas jigar qonini icha.  
Boylikka muncha dil bog'lamoq nechun?  
Boylik vafo qilmas birovga hecham.

Ko'ngildan chiqar mol-dunyo suqligin,  
Ista ust butligi, qorin to'qligin.  
Yeyish-kiyishdamas boy-kambag'allik,  
Qashshoqlik deb bilma oziq yo'qligin.

Dunyo boyligidan kiyim, yegulik —  
Bo'lsa bas, ortig'i ziyon degulik.  
Ekinzor deb aytди dunyoni Rasul,  
Unda ekin ekkan topdi ezgulik.

Bebaqodir ushbu dunyo lazzati,  
Yeldek kechar uning totli muddati.  
Yangi eskiradi, yigit qariydi,  
Beli bukiladi, ketar quvvati.

Boylik bugun kelsa, ertaga ketar,  
Mulking boshqa birov qo'liga o'tar.  
Neki butun bo'lsa, yemrilar bir kun,  
Neki obod, xarob sari yuz tutar.

Qancha obod yerning chiqdi taqiri,  
Gurkiragan elning bitdi taqdiri.  
Qancha dono edi, qancha faylasuf,  
Qolmadi ularning mingidan biri.

Dunyo goh qosh qoqar, goh qovoq solar,  
Bir qo'lida asal, birida zahar.  
Asal bilan totli qilib taoming,  
Ortidan zaharli qadahni tutar.

Shirinlik yeganda achchiqlikka yo'y,  
Bir rohat ortida o'n g'am tortar bo'y.  
Ey mashaqqat chekmay rohat istovchi,  
Bu orzung ushalmas sira — bilib qo'y!

Ilondek dunyoning ishi sehr-jodu,  
Yuvosh deb aldanma, ichi liq og'u'.  
Yuvosh ko'rinsa-da, fe'li ko'p yomon,  
Hazir bo'Imaganni<sup>1</sup> o'ldiradi u.

Bu dunyoning juda chiroyli tashi,  
Lekin ichidadir ming bir noxushi.  
Bas, uning sirtiga mahliyo bo'lib,  
Ko'ngil bo'lamoq, bil, xatolar boshi.

### **Dunyoga muhabbat qo'yish xatolarning boshi ekanligi haqida payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning so'zi**

Goh niqobin olib, dunyo yuz ochar,  
Quchguday bo'lib qo'l yozar-u qochar.  
Ko'klam buluti yo tushdek omonat,  
Baxt yeldek tez kechar yo qushdek uchar.

---

<sup>1</sup> O g'u — zahar.

<sup>2</sup> Hazir bo'lamoq — biror kimsa yoki narsadan ehtiyyot bo'lmox, o'zini saqlamoq.

### **Saxovat va baxillik oqibati haqida**

Ey do'stim, bilimli kishi izlagil,  
Agar so'zlasang so'z, bilib so'zlagil.  
Maqtamoqchi bo'lsang, saxiyni maqta,  
Baxilga qattiq yoy o'qin ko'zlagil.

Saxiyni ulug'lar barchaning tili,  
Bor aybini yopar saxiyning fe'li.  
Saxiy bo'l, to senga la'nat kelmasin,  
Saxovat berkitar la'natning yo'lin.

Eng qattiq ko'ngilni saxiy yumshatar,  
Eng oliv maqsadga saxiy er yetar.  
Baxillikni hech kim maqtagan emas,  
Saxiylikni ham xos, ham om' madh etar!

Saxiy ilm qadriga yeta bildi — ko'r,  
Borini ulashib, olqish oldi — ko'r.  
Bu dunyoda umri qisqa insonning  
Qiyomatga qadar oti qoldi — ko'r.

Baxil ishi harom mol-dunyo yig'ish,  
O'ldi-ketdi olib la'nat-u so'kish.  
Talash bo'ldi moli kishilar aro,  
El qarg'ishi bo'ldi baxilga ulush.

Ey boylik egasi, saxiy, yaxshi er,  
Haq senga berdimi, sen ham xalqqa ber!  
Bermay bosib yotgan la'natga loyiq,  
In'omdan qochmasang, dunyo yig'avver!

---

Om — omma, xalq.

Dunyoda eng yaxshi saxiy degan nom,  
Baxil oti esa yomondir mudom.  
In'om beruvchi qo'l qutlug'dir juda,  
Qutsizdir<sup>1</sup> qaysi qo'l bermasa in'om.

Baxillik davolab bo'lmas darddir ul,  
Saxovat yo'li berk baxilga butkul.  
Yig'ib ko'ngli to'lmas ko'zi och baxil,  
Mol-dunyo go'yo shoh, baxil esa qul.

Xalqning eng yaxshisi saxiy er erur,  
Saxiylik shon, obro<sup>2</sup>, qadr orttirur.  
Sevilmoq tilasang kishilar aro,  
Saxiy bo'l, saxiylik seni sevdirur.

Baxil, tuban kishi boylik posboni,  
Yig'ar, yemas-ichmas, tutar berk uni.  
Tiriklikda do'sti totmagan tuzni,  
O'lgach maza qilib yeysi dushmani.

---

<sup>1</sup> Q u i — bu yerda: baraka, samara.

**Tavoze'lik manfaati, kibrlik  
va harislikning zarari to'g'risida**

Yana bir keraklik so'zim bor senga,  
Aytayin men uni — qulqut tut menga.  
Takabburni boshdan oshirib tashla,  
Tavoze'ni top-u do'st tutin unga.

Takabbur hamisha nafratga loyiq,  
Muloyimlik esa eng yaxshi qiliq.  
O'zin katta tutsa kim manmansirab,  
Uni na xaloyiq sevar, na Xoliq<sup>1</sup>.

Yig'ib-terib butun dunyo molini,  
Yemay o'lib ketdi — ko'ring holini:  
U qabr ichra so'roq berar qoldirib —  
Yot erkakka ham mol, ham ayolini.

Kibr to'nin kiyib, ko'krak kermagil,  
Xalqqa tiling bilan ozor berma mo'l.  
Mo'minlik nishoni tavoze' erur,  
Agar mo'min esang, tavoze'li bo'l!

Tavoze'ni hatto Xudo xush ko'rар,  
Takabbur kishini tubanlashtirar.  
Katta ketma sira, ulug' bir Xudo,  
Ulug'lik yo'q Xudo qo'llamasa gar.

---

<sup>1</sup> X o l i q — Aliohning ismlaridan biri: yaratuvchi, vujudga keltiruvchi.

## **Tavoze'likni oshirish va kibrlikni tashlash to'g'risida payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam)ning aytganlari**

Mol-dunyo tufayli bo'ldinggu ulug',  
Kibr-u havo seni qul qildi to'liq.  
Moldan ne naf, o'lgach ketsang yalang'och,  
Qolsa uy-joy, hamyon, mol to'la sandiq.

Agar kibr egasi asilman desa,  
Men javobin beray so'zini kesa:  
Bir ota, bir ona farzandi bu xalq,  
Tafovut qolmas chin dunyoda' esa.

## **Odam Ato va Momo Havodan ibrat olish haqida**

Yana pandimni ol — qil unga amal,  
Ikkilanma — poylab turibdi ajal.  
Amal deganim bu ko'p o'yamoqdir,  
Kamroq o'lab, ko'proq ish qilgan go'zal.

Aytarsan: kiyim, to'n, sharob, osh kerak,  
Behisob mol-u ko'p qorabosh<sup>2</sup> kerak.  
Bir umrlik mol-u dunyo yig'sang ham,  
Eng avval bo'rk<sup>3</sup> kiyadigan bosh kerak.

Harislik<sup>4</sup> — kishiga yomon xislat ul,  
Harislik so'nggi g'am, o'kinch, hasrat ul.  
Boylik, kambag'allik — Xudo qismati,  
Harislik kishiga faqat zahmat ul.

---

<sup>1</sup> C h i n d u n y o — u dunyo, oxirat.

<sup>2</sup> Q o r a b o s h — qul, cho'ri, xizmatkor.

<sup>3</sup> B o' r k — bosh kiyimi.

<sup>4</sup> H a r i s — ochko'z, ta'magir.

## Rasullohning harislik haqida aytganlari

Haris to'ymas dunyo molini terib,  
Harislik qarimas egasi qarib.  
Haris kishi qo'yay harisligini  
O'lib yitsa tuproq ichiga kirib.

Haris dunyo yig'ib charchamas bo'lur,  
Harislik dardiga davo kim bilur?  
Daromad xabari berilsa kimga,  
Ikki qo'l dinorni<sup>1</sup> u o'n qo'l qilur.

## Rasulloh kishilarining ikki "vodiy" to'la "oltin" bo'lsa ham, uchinchisini istashi haqida aytganlari

Dunyoga hirs qo'yan, ey haris yurak,  
Ayt-chi, bu harislik nimaga kerak?  
Rizqing belgilikdir — ozmi yoki ko'p,  
U zarra ko'paymas, bo'lma jonhalak.

## Tangri dunyo ne'matlarining taqsimoti haqida

Asli toza arning fe'li ko'rklilik ul,  
Bunday go'zal xulqqa ko'ngil erklik ul.  
Bir erdan bir arning tafovuti ko'p,  
Buni ko'rmas erga lekin berklak ul.

---

<sup>1</sup> D i n o r — oltin tanga.

**Axloqning karomati, harislikni  
tashlash haqida**

Odamlar fe'lini yaxshi kuzat, bil,  
Kimda karam bo'lsa, uni er degil.  
Mevasiz daraxtdek karamsiz kishi,  
Mevasiz daraxtni kesib o'rtagil.

Musulmonga mushfiq bo'lib, mehribon,  
O'zing kabilarni sana musulmon.  
Jafo qiluvchiga vafo javob qil,  
Qonni qon bilan ming yuvsasi, ketmas qon.

**Tangrining buyrug'i va shafqatiga itoat qilish haqida  
Rasullohning aytganlari**

Yarog'lik oshingni kishiga yedir,  
Topsang, yalang'ochning egnini bitir.  
Zinhor birov larga zulm-zo'rlik qilma,  
Boshiga ish tushganlarga madad ber.

Yomonlik qilganga sen yaxshilik qil,  
Muruvvatning doshi shudir — yaxshi bil.  
Agar birov senga qilsa yaxshilik,  
Uning duosidan to'xtamasin til.

Gunohkor kishining gunohin kechir,  
Adovat ildizin tagidan ko'chir.  
G'azab o'ti agar olsa alanga,  
Halimlik suvin soch — ul o'tni o'chir.

---

<sup>1</sup> H a l i m — muloyim, yoqimli.

**G'azabni bosish, kishilar (gunoh)ini kechirish,  
Xudoning marhamatini sevish haqidagi Tangrining  
so'zlari. Payg'ambar (alayhissalom)ning g'azabni  
yengish, Tangrining har narsaga qodirligi, iymonga  
erishish yo'llari, uning Rasuliga sadoqat va Allohning  
muhabbatiga yetishish to'g'risida aytganlari**

Karam<sup>1</sup> binosidan hilm<sup>2</sup> bo'lar hosil,  
Karam keng dengiz yo gulzor ichra gul.  
Xulq-odob egallab, o'zni kamtar tut,  
Karam egasiga arzir bo'lsa qul.

O'zingdan kattani hurmat qil, hurmat,  
Tashla, qancha bo'lsa yomon fe'l, odat.  
Chunki bu ishlaring yoshlarni buzib,  
Kattalar ko'nglida qo'zg'aydi nafrat.

Shodlikka yo'y balo kelsa, sabr etib,  
Shodlik kelishiga ko'z tut qon yutib.  
O'char kulfat o'ti — kechar navbati,  
Qolar sabr qilgan savobni tutib.

**Tangriga muhabbatni qattiq tutish,  
shuningdek, rasuloh (alayhissalom)ning ibodat orqali  
sevinchni kutish haqida aytganlari**

Ulug'likka yetsang, yanglishma o'zing,  
Atlas kiyganingda unutma bo'zing.  
Fe'lingni yaxshilab ulug'larga xos,  
Katta-yu kichikka yumshoq qil so'zing.

<sup>1</sup> K a r a m — yaxshilik, ehson, marhamat.

<sup>2</sup> H i l m — muloyimlik, yumshoqlik.

**Turlichcha ma'no bildiruvchi baytlar haqida**

So'zni bilib so'zla, shoshib so'zlama,  
Bo'limg'ur so'z aytib, keyin bo'zlama.  
Do'sting mingta bo'lsa, ko'p ko'rma sira,  
Dushman bitta bo'lsa, uni oz dema.

**Rasulloh (alayhissalom)ning ming do'stdan  
bir dushman ko'p degani**

Tadbirli kishi ham goh xato qilar,  
Mohir ustada ham biror ayb bo'lar.  
Bir ayb uchun kishi boshi kesilsa,  
Dunyo boshdan oyoq odamsiz qolar.

Yasha odamlarning ko'nglini olib,  
Yomon odatlarni orqaga solib.  
Bir ish qilar ekan, o'ylab qil, uning —  
Kerakli yo keraksizligin bilib.

Senga to'g'ri kelsa qay ishni qilmoq,  
Yaxshidir uning old-ortini bilmox.  
Agar xayrlidir, dil bersa arzir,  
Agar o'kinchlidir, lozim qutulmoq.

**Biror ish qo'lidan boy berilganda uning zararidan  
saqlanish, tikan ekilsa, unda uzum bitmasligi haqida**

Yaxshining qo'lidan yomonlik kelmas,  
Yomon hech yaxshining qadrini bilmox.  
Ey yomonlik qilib, yaxhilik kutgan,  
Kim tikan izlasa, u uzum yulmas.

Do'sti yaxshi o'zi ham yaxshi bo'lar,  
Yaxshi do'stdan doim yaxshilik kelar.  
Yomonga qo'shilma, yomon suhbati  
Seni ham yomonlik yo'liga solar.

### **Payg'ambar (alayhissalom)ning zulm va jinoyat yo'lidan saqlanish haqida aytganlari**

Majoz bo'ldi do'stlik — haqiqat qani?  
Ming do'st ichra yo'q bir haq yo'l tutgani.  
Ko'pchilik kishining ichi qoradir,  
Ko'plarning do'stligi yuzaki, ya'ni.

Bu kun insoniylik dunyoda aziz,  
Insoniy xislatlar yo'q bo'ldi, esiz.  
Qurib bitdi butkul vafo chashmasi,  
Jafo to'lib-toshdi misoli dengiz.

Qani ahdga vafo, qani ezgulik?  
Adolat kelguncha xayr' ketgulik.  
Boshi ketsa xayrning, so'nggi ham ketar,  
Oldi kelsa xayrning, orti kelgulik.

Dunyo to'ldi jabr-u jafo, zulm ila,  
Qani bir vafoli — bor bo'lsa, tila.  
Zolimning zulmidan dunyo buzildi,  
Zolim ne qilardi dunyoga kela?..

Islom zaif edi, zaif bo'lgan boz<sup>1</sup>,  
Ibodat riyo-yu niqobdir namoz.  
Xarobot<sup>2</sup> ko'chasi bo'lib obodon,  
Masjid xarobu xalq bo'ldi benamoz.

<sup>1</sup> X a y r — yaxshilik, in'om, ehson.

<sup>2</sup> B o z — yana, tag'in.

<sup>3</sup> X a r o b o t — tasavvufda mayxona, komil inson huzuri; bashariy sifatlarning xarob va jismoniy vujudning foniyligi bo'lishi.

**Islomning tushkunlikka uchrashi  
va saodatning qaytishi haqida  
Payg‘ambar (alayhissalom)ning aytganlari**

Zohidda<sup>1</sup> zuhd<sup>2</sup> yo‘qdir, olimda amal,  
Orif raqs-u samo<sup>3</sup> qilar har mahal.  
Bid’atdan<sup>4</sup> qaytarar kishi qolmadi,  
Kundan kunga ortar bid’at bexalal.

Qani yaxshi ishlar, yaxshi kishilar?  
Qani, qayda yaxshi kishilar yashar?  
Zamonni ayblama odamlar qolib,  
Zamonni ozdirgan asli o’shalar.

Kim ichkilik ichsa, yomon kishi ul,  
Yomonlik tilasang, kel, ichuvchi bo‘l.  
Kim ilm-u hunarli — yo‘li ochilmas,  
Kim nodon, hunarsiz — ungadir keng yo‘l.

Ey yaramas kishi, kibringni tashla,  
To hayot ekansan, yaxshi ish boshla.  
Istagancha tinch-u qayg‘usiz yasha,  
Yaxshi ishing bilan ko‘ngilni xushla.

Dunyoda uyatning qolmadi oti,  
Halol kishilarning topilmas zoti.  
Halol yashayotgan kishi qani kim?  
Halol-u haromning yo‘q tafovuti.

---

<sup>1</sup> Z o h i d — uzlat va taqvoni kasb qilib olib, dunyo lazzatidan yuz o‘girgan kishi.

<sup>2</sup> Z u h d — dunyodan voz kechib, toat-ibodat bilan shug‘ullanish.

<sup>3</sup> O r i f — ma’rifat sohibi, Alloohni tanigan kishi, komil inson, Allohnning zoti, sifatlari va ismlarini mushohada etadigan zavqiy va vajdiy ilmlar egasi bo‘lgan zot.

<sup>4</sup> S a m o’ — eshitish, tinglash. So‘fiylarning vajd-u holga erishish maqsadida uyushtirgan zikr majlislari, qo‘shiq va raqs bazmlari.

<sup>5</sup> B i d’ a t — din aqidalariga xilof yangilik.

Odamlar boylarga burib yuzlarin,  
Ularga qul qilib berar o'zlarin.  
Yuzlarin o'girib faqir kishidan,  
Ko'rmasga olarlar yumib ko'zlarin.

Ey boylik oshig'i, bilsang, mol-u mulk  
Bu dunyoda tashvish, u dunyoda yuk.  
Harom bo'lsa moling — qismating azob,  
Halol bo'lsa moling, hisobi bor lek.

**Payg'ambar (alayhissalom)ning halolga hisob,  
haromga azob bo'lishi haqida aytganlari**

Mol-dunyoga nega muncha och ko'zing,  
Boylik dildagi g'am, tildagi so'zing.  
O'lgach yiqqanlaring dushmanga qolur,  
Senga nasib bo'lar ikki gaz' bo'zing.

To'plagan mol-dunyong ulfatdir senga,  
Lekin yashirganing kulfatdir senga.  
Shirin tuyuladi bu kun mol yig'mak,  
U kun tashlab ketish hasratdir senga.

**Tangrining o'ziga va aytgan so'zlariga  
sodiq bo'lishi haqida**

Bu dunyo lazzati ko'p achchiq maza,  
Tashvishi mo'l uning, rohati oz-a.  
Qayda asal bo'lsa, arisi ham bor,  
Asal deb, zahrini tortasan toza.

Hunarmandga dunyo vafosizroqdir,  
Hunarsizga bundan jafo ozroqdir.  
Hunar bilan davlat birga bo'lishi  
Bu dunyoda barcha ishdan sozroqdir.

---

<sup>1</sup> G a z — 70 sm ga teng o'lchov birligi.

Dunyoga ne qildi bu sohibhunar,  
Dunyo nega uni tinimsiz qiynar?  
Xasisni ulug'lab, yaxshini xo'r lab,  
Kin-u adovatli bu dunyo kechar...

Ey dunyoga hukm etuvchi Xudo,  
O'zing berib, O'zing qilarsan judo.  
Sening amring bilan bo'lar har bir ish,  
Sening amring bilan shoh bo'lar gado.

Dunyoni ayblama, ey nodon kishi,  
Allohning qo'lida taqdirning ishi.  
Taqdir tortsa, kiyik tuzoqqa tushar,  
Taqdirdan oyoqqa tikan kirishi.

Hamma narsa asli qazodan<sup>1</sup> kelar,  
Nodon kishi uni sababdan ko'rар.  
Qazo bilan uchgan Xoliq qushlari  
Qo'lga qo'nadi-yu, qafasga kirar.

Qazo kelsa, jonzot yurmas yugurib,  
Qazo qaytarilmas to'siq, g'ov qurib.  
Tangri kimga ranj-u<sup>2</sup> kimga ganj<sup>3</sup> berar,  
Sen jabr-u zulm qilma Yaratgan turib.

---

<sup>1</sup> Q a z o — taqdir, qismat.  
<sup>2</sup> R a n j — mashaqqat, qiyinchilik.  
<sup>3</sup> G a n j — boylik, xazina.

**(So'zning tugallanish sababi)**

Bu kitob bosh-oxir pand-o'git, masal,  
O'qigan bo'ladi yegandek asal.  
Kimki unga biror qiyos qidirsa,  
Munosib kitobni aylasin badal<sup>1</sup>.

Adib Ahmad — otim, adab-pand — so'zim,  
So'zim bunda qolur, ketsam-da o'zim.  
Yoz kechar, kuz kelar — o'tar bu umr,  
Umrim ado qildi bu yoz-u kuzim.

Bu turkiy kitobni men berdim tartib,  
Xoh e'zozla, xohi ta'nani ko'r ep.  
Bitdim eng go'zal va tansiq so'zlarni  
Bu dunyodan o'tsam nomim qolsin deb.

Ushbu kitobga xos asosiy xislat —  
Unga ziynat bo'ldi pand, o'git, hikmat.  
Behuda so'z xor-u nodir so'z tansiq,  
Bo'z arzon-u atlas bo'lgandek qimmat.

Mendan so'ng keluvchi, ey baxtli avlod,  
O'qisang, qil meni duo bilan yod.  
Bu nodir kitobim qoldirdim senga,  
Duo aylab, qilsin ruhimni, deb, shod.

---

<sup>1</sup> B a d a l — biror narsaning o'rniga, evaziga beriladigan haq yoki narsa, narsaning qiymatiga teng keladigan boshqa biror narsa; evaz.

## **Adib (alayhirrahma)ning ta'rifiiga doir**

Tug'ma ko'r edi bu Adibning ko'zi,  
O'n to'rt bob ichra jo bo'ldi so'zi.  
Bir tuya oltin-u javohirga teng —  
Bu so'zlar agar oz bo'lsa-da o'zi.

### **Alayhirrahma Amir Sayfiddinning ta'rifi**

Adiblar adibi, fozillar boshi,  
Gavhar kabi so'zlar edi yo'ldoshi.  
Rahmatiga olib uni Xudoyim,  
Qiyomatda qilsin do'stlarning boshi.

### **Buyuk tadbirim Amir (mo'minlar) soyaboni Xoja Arnob Arslonxoja Tarkon (alayhirrahma) ta'rifi**

Yugnak — Adibning ko'z ochgan ma'vosi,  
Dillarni yayratar ko'rk-u safosi.

Otasining oti Mahmud Yugnakiy,  
Adib Ahmad uning o'g'li — yo'q shaki.

“Hibat ul-haqoyiq” — arabcha oti,  
Pand-u nashatdir uning murodi.

Koshg'ariy til bilan yozilgandir u,  
Nazm rishtasiga tizilgandir u.

Koshg'ariy tilini bilsa har kishi,  
Adib so'zlarini oson uqishi.

Til bilgan biladi nimadir ma'no,  
Bilmas bilaman deb qilmasin da'vo.

Ko'p odamlar bordir — bilmas o'zini,  
Buzib aytib yurar Adib so'zini.

O'zi talqin qilib ularni xato,  
Adibni aybdor qilmish xalq aro.

Elga foyda bo'lsin deb bitdim kitob,  
Xoh ijobat qil-u xoh ayla itob<sup>1</sup>.

Kim amal aylasa Adib so'ziga,  
El ichra e'tibor topar o'ziga.

---

<sup>1</sup> Itob — 1) malomat, ta'na; 2) qahr, g'azab.

## MUNDARIJA

Ergash OCHILOV. Axloq muallimi.....	3
Birinchi bo'lim .....	17
Ikkinchchi bo'lim .....	20
Uchinchi bo'lim .....	22
To'rtinchi bo'lim .....	24
Beshinchchi bo'lim .....	26
So'nggi bo'lim .....	29
Oxirgi bo'lim .....	31
So'nggi so'z .....	36

4500 сур.

## Bolalar kutubxonasi

**ADIB AHMAD YUGNAKIY**

### **HIBAT UL-HAQOYIQ**

“Sharq” nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2013

Muharrirlar *Shoira Ergasheva, Vafо Fayzulloh*  
*Badiiy muharrir Feruza Basharovа*  
*Texnik muharrir Ra'no Boboxonova*  
Sahifalovchilar: *Masiura Atxamova, Hilola Sharipova*  
*Musahhih Ma'mura Ziyamuhamedova*

Bosishga ruxsat etildi 17.07.2013. Bichimi 84x108<sup>1/32</sup>. Ofset bosma.  
“TimesUZ” garniturasi. Shartli bosma tabog'i 2,10. Nashriyot-hisob  
tabog'i 0,92. Adadi 6000. Buyurtma № 3062. Bahosi kelishilgan narxda.

**“Sharq” nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.**